Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 430-sahifa.
2026-yil, oktabr.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar).....322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики.....338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish.....347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari.....358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida).....365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards.....381

SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar.....389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.....395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash yo'llari.....401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo'yicha statistik tahlili.....407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari (Xorazm viloyati misolida).....413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....430

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

KLASTERLASH VA INFRATUZILMA O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH
Qarshi davlat unversiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi
NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Qarshi davlat universiteti “Biznes va boshqaruv”
kafedrasi professori, i.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy klasterlash jarayonlari va infratuzilma rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy-statistik hamda ekonometrik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi hududlarda klasterlash darajasining transport, ishlab chiqarish, logistika, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash hamda mazkur bog‘liqlikning iqtisodiy mexanizmlarini baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik guruhlash, korrelyatsion-regression tahlil va ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan. Klasterlash darajasi va infratuzilma rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘nalishi va zichligi baholanib, infratuzilmaviy omillarning hududiy iqtisodiy faollikni shakllantirishdagi roli aniqlangan.
Kalit so‘zlar: klasterlash, hududiy klaster, infratuzilma, hududiy rivojlanish, ekonometrik modellashtirish, korrelyatsion tahlil, regression tahlil, iqtisodiy faollik, transport infratuzilmasi, logistika infratuzilmasi, investitsiyalar, hududiy iqtisodiyot.

Аннотация. В статье исследуется взаимосвязь между процессами территориальной кластеризации и развитием инфраструктуры на основе экономико-статистического и эконометрического подходов. Основная цель исследования заключается в определении влияния уровня кластеризации регионов на показатели транспортной, производственной, логистической, инженерно-коммуникационной и социальной инфраструктуры, а также в оценке экономических механизмов данной взаимосвязи. В процессе исследования использованы методы системного анализа, статистической группировки, корреляционно-регрессионного анализа и эконометрического моделирования. Оценены направление и теснота взаимосвязи между показателями, характеризующими уровень кластеризации и развитие инфраструктуры, а также определена роль инфраструктурных факторов в формировании региональной экономической активности.
Ключевые слова: кластеризация, территориальный кластер, инфраструктура, региональное развитие, эконометрическое моделирование, корреляционный анализ, регрессионный анализ, экономическая активность, транспортная инфраструктура, логистическая инфраструктура, инвестиции, региональная экономика.

Abstract. This article investigates the interrelationship between territorial clustering processes and infrastructure development based on economic-statistical and econometric approaches. The main objective of the study is to identify the impact of the level of clustering in regions on indicators of transport, production, logistics, engineering and communication, and social infrastructure, as well as to assess the economic mechanisms underlying this relationship. The study employs systematic analysis, statistical grouping, correlation-regression analysis, and econometric modeling methods. The direction and strength of the relationship between indicators characterizing the level of clustering and infrastructure development are assessed, and the role of infrastructure factors in shaping regional economic activity is identified.
Keywords: clustering, territorial cluster, infrastructure, regional development, econometric modeling, correlation analysis, regression analysis, economic activity, transport infrastructure, logistics infrastructure, investment, regional economy.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanishda klasterlash jarayonlari muhim iqtisodiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Klasterlash bir hududda o'zaro bog'liq korxonalar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlarining iqtisodiy manfaatlar asosida integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Bunday tizimning samarali faoliyat yuritishi esa faqat ishlab chiqarish salohiyatiga emas, balki hududning transport, logistika, energetika, aloqa, suv ta'minoti va boshqa infratuzilmaviy imkoniyatlariga ham bevosita bog'liq. O'zbekistonda so'nggi yillarda klasterlashga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish hududiy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasida sanoat va klasterlash, shuningdek, innovatsion infratuzilma subyektlari — innovatsion texnoparklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur tashkilotlari, startap akseleratorlari va inkubatorlar tarmog'ini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv "tarmoq–hudud–ilmiy/oliy ta'lim tashkiloti" o'rtasidagi uzluksiz iqtisodiy va innovatsion ekotizimni shakllantirishga qaratilgan. Klasterlarning O'zbekiston iqtisodiyotidagi amaliy ahamiyatini rasmiy statistika ma'lumotlari ham ko'rsatadi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunida klasterlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 37 023,4 mlrd so'm, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa 3 366,8 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar klasterlarning hududiy ishlab chiqarish va investitsiya jarayonlaridagi iqtisodiy ahamiyatini miqdoriy jihatdan ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, klasterlarning hududlar bo'yicha rivojlanish darajasi bir xil emas. Milliy statistika qo'mitasining SIAT ma'lumotlarida 2025-yil yakunida O'zbekiston bo'yicha klasterlarda 56 555 ta ish o'rni qayd etilgan. Hududlar kesimida esa mazkur ko'rsatkich sezilarli darajada farqlanadi: Andijon viloyatida 9 696 ta, Buxoro viloyatida 5 394 ta, Qashqadaryo viloyatida 3 609 ta, Jizzax viloyatida 3 193 ta klaster ish o'rni mavjud bo'lgan. Mazkur tafovutlar klasterlarning iqtisodiy samaradorligini hududlarning ishlab chiqarish va infratuzilma salohiyati bilan birgalikda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Infratuzilma klasterlarning iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillardan biridir. Transport va logistika tarmoqlarining rivojlanganligi xomashyo, butlovchi qismlar va tayyor mahsulotlarning harakatlanish xarajatlarini kamaytiradi; barqaror energetika infratuzilmasi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi; raqamli va kommunikatsiya infratuzilmasi esa korxonalar o'rtasidagi axborot almashinuvi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Shu sababli klasterlashni faqat korxonalar geografik jihatdan bir hududda joylashuvi bilan izohlash yetarli emas. Klasterlarning real iqtisodiy samaradorligi ularni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaviy muhit bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatining ko‘lami ham mazkur masalaning dolzarbligini kuchaytiradi. 2026–2028-yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va yangi quvvatlarni ishga tushirish bo‘yicha hududiy maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan. Bundan tashqari, 2026-yil sentyabr oyida transport va logistika sohasidagi yirik loyihalar muhokamasida 2030-yilgacha transport xizmatlari hajmini ikki baravar oshirish, sohaga 9,1 mlrd dollar investitsiya jalb qilish va xizmatlar eksportini 5,7 mlrd dollarga yetkazish rejalari qayd etilgan. Mazkur jarayonlar klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni nafaqat nazariy, balki empirik jihatdan ham o‘rganishni talab etadi. Chunki infratuzilma rivojlanishining klasterlarning investitsiya faolligi, ishlab chiqarish hajmi, bandlik va hududiy iqtisodiy o‘sishga ta’siri turli hududlarda bir xil bo‘lmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, statistik ma’lumotlar asosida o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni aniqlash, keyinchalik regression va ekonometrik modellar orqali infratuzilmaviy omillarning klasterlash jarayoniga ta’sirini miqdoriy baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi hududiy klasterlash jarayonlari va infratuzilma rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ekonometrik usullar yordamida aniqlash, infratuzilmaning klasterlarning iqtisodiy faolligiga ta’sirini miqdoriy baholash hamda hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Klasterlash va infratuzilmaning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri iqtisodiy geografiya, hududiy iqtisodiyot va raqobatbardoshlik nazariyalarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishning nazariy asoslari, avvalo, hududiy konsentratsiya, ixtisoslashuv, iqtisodiy aloqalar va ishlab chiqarish omillarining hududiy joylashuvi bilan bog‘liq ilmiy qarashlarga borib taqaladi. Klaster nazariyasining zamonaviy rivojlanishida Michael E. Porterning ilmiy ishlari alohida o‘rin tutadi. Porter (1998) klasterni muayyan hududda o‘zaro bog‘liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va tegishli institutlarning geografik jihatdan jamlanishi sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, hududiy yaqinlik korxonalar o‘rtasida bilim, axborot va tajriba almashinuvini kuchaytirib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobat ustunliklarini shakllantiradi. Shuningdek, Porter klasterlarning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini mahalliy bilimlar, o‘zaro munosabatlar va iqtisodiy manfaatlarning bir hududda mujassamlashuvi bilan bog‘laydi. Porterning mazkur yondashuvi klasterning samaradorligini faqat alohida korxonalarning faoliyati bilan emas, balki ularni o‘rab turgan hududiy iqtisodiy muhit bilan birgalikda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Harvard Business School tomonidan ishlab chiqilgan klaster yondashuvida ham klasterlar kompaniyalar, ixtisoslashgan ta’minotchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va tegishli institutlarning geografik konsentratsiyasi sifatida qaralib, ularning asosiy iqtisodiy afzalligi firmalar raqobatlashadigan mahsuldorlikni oshirish bilan

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

izohlanadi.Christian H.M.Ketels va Olga Memedovic (2008) klasterlashni hududiy raqobatbardoshlik va iqtisodiy siyosat bilan bog‘lab o‘rgangan. Ularning tadqiqotida klaster siyosati alohida korxonalarni subsidiyalashdan ko‘ra, korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik, bilim almashinuvi, ixtisoslashuv va hududiy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilishi lozimligi asoslanadi. Mualliflar klasterga asoslangan iqtisodiy rivojlanish yondashuvida davlat, biznes, ilmiy-tadqiqot va boshqa manfaatdor tomonlarning o‘zaro hamkorligi muhimligini ta’kidlaydi.Christian Ketels (2013) klasterlar va hududiy raqobatbardoshlik bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, klasterlarning hududiy iqtisodiy natijalar va iqtisodiy evolyutsiya bilan yaqin bog‘liqligini ko‘rsatadi. Olimning tadqiqotida klaster siyosatining amaliy yo‘nalishi mavjud iqtisodiy konsentratsiyalarni mustahkamlash, ularning samaradorligini oshirish va hududiy raqobatbardoshlik omillarini kuchaytirish bilan bog‘lanadi. Bu yondashuv klasterlarni hududning umumiy iqtisodiy va infratuzilmaviy sharoitlaridan ajratib o‘rganish cheklangan natijalarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Klasterlarning hududiy iqtisodiy natijalarga ta’sirini empirik jihatdan baholashga Mercedes Delgado, Michael E.Porter va Scott Stern (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqot muhim hissa qo‘shgan. Mualliflar mintaqaviy klasterlarning tarkibi va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatni empirik model asosida tadqiq etgan. Tadqiqotda bir hududdagi o‘zaro bog‘liq tarmoqlar o‘rtasidagi ijobiy spillover, ya’ni bilim, tajriba va iqtisodiy faoliyatning tarqalishi hududiy sanoat o‘sishini rag‘batlantirishi mumkinligi ko‘rsatilgan.Christian Ketels va Sergiy Protsiv (2020) Yevropa ma’lumotlari asosida klasterlarning iqtisodiy natijalarga ta’sirini qayta empirik baholagan. Tadqiqot natijalarida klasterlarning mavjudligi sanoat tarmoqlaridagi ish haqi darajasi va hududiy farovonlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi aniqlangan. Ushbu yondashuv klasterlashni faqat ishlab chiqarish korxonalarining geografik jamlanishi sifatida emas, balki hududiy iqtisodiy natijalarni shakllantiruvchi omil sifatida o‘rganish imkonini beradi. Klasterlashning samaradorligini belgilovchi tashqi omillar orasida infratuzilmaning o‘rni ham ko‘plab tadqiqotlarda alohida qayd etilgan. Stéphane Straub va Maria Vagliasindi tomonidan 2025-yilda e’lon qilingan meta-tahlilda infratuzilmaning rivojlanish natijalariga ta’siri bo‘yicha 221 ta ilmiy ishdagi mingdan ortiq baholash natijalari umumlashtirilgan. Tadqiqot transport, energetika va raqamli infratuzilma yo‘nalishlarini qamrab olgan bo‘lib, umumiy natijalar infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’siri mavjudligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, ta’sir darajasi mamlakatlar, infratuzilma turlari va tadqiqot sharoitlariga qarab sezilarli darajada farqlanishi aniqlangan. Infratuzilma va iqtisodiy unumdorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik Young Eun Kim va Norman V. Loayza (2019) tadqiqotlarida ham ko‘rib chiqilgan. Mualliflar iqtisodiy unumdorlikning asosiy determinantlari qatorida innovatsiyalar, ta’lim, bozor samaradorligi, infratuzilma va institutsional omillarni ajratib ko‘rsatgan. Mazkur yondashuv infratuzilmani hududiy ishlab chiqarish va iqtisodiy faollikning tashqi sharti emas, balki unumdorlikni shakllantiruvchi tarkibiy omillardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Jahon

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

bankining infratuzilma bo‘yicha tadqiqotlarida ham transport infratuzilmasi va xizmatlari iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynashi qayd etiladi. Xususan, transport xarajatlarining pasayishi rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish, bozorlar bilan aloqadorlik va iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidlangan. Biroq infratuzilma investitsiyalarining samarasi hududiy, institutsional va loyihaviy sharoitlarga bog‘liq bo‘lishi sababli infratuzilma obyektlarini faqat investitsiya hajmi orqali emas, balki ularning iqtisodiy natijalari bilan bog‘liq holda baholash zarurligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda infratuzilma turlarining o‘zaro to‘ldiruvchanligi masalasiga ham e’tibor kuchaymoqda. Jahon bankining yangi tahlillarida energetika, transport va raqamli infratuzilmaning birgalikda rivojlantirilishi alohida yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan investitsiyalarga nisbatan yuqoriroq iqtisodiy samara berishi mumkinligi qayd etilgan. Bu holat hududiy klasterlarni rivojlantirishda infratuzilmani alohida obyektlar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona o‘zaro bog‘langan tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili uchta asosiy ilmiy xulosani shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, klasterlash hududiy ixtisoslashuv, firmalar o‘rtasidagi hamkorlik va bilim almashinuvi orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin. Ikkinchidan, infratuzilma transport, energetika va raqamli aloqalar orqali iqtisodiy subyektlarning bozorlar va resurslarga kirishini yaxshilaydi. Uchinchidan, klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi munosabat bir tomonlama emas: rivojlangan infratuzilma klasterlarning shakllanishini qo‘llab-quvvatlasa, klasterlarning iqtisodiy konsentratsiyasi o‘z navbatida infratuzilmaga bo‘lgan talabni oshirishi mumkin.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismi klasterlarning hududiy iqtisodiy natijalarga ta’siri yoki infratuzilmaning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini alohida o‘rgangan. Aynan klasterlash darajasi bilan infratuzilma rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligini hududlar kesimida bir nechta miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida ekonometrik model orqali baholash masalasi yetarlicha tizimli yoritilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliq ushbu tadqiqotda klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni korrelyatsion-regression hamda ekonometrik usullar asosida aniqlash zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun iqtisodiy-statistik va ekonometrik tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini M. Porter, M. Delgado, C. Ketels va boshqa olimlarning klasterlash hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha ilmiy yondashuvlari tashkil etadi. Tadqiqotda O‘zbekiston hududlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar asosida klasterlash darajasi va infratuzilma rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida statistik tahlil, taqqoslash va guruhlash usullari yordamida hududlar kesimida klasterlarning rivojlanish holati hamda infratuzilma ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi. Klasterlash jarayonini baholashda klasterlar

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

soni, ularda yaratilgan ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi va investitsiyalar kabi ko‘rsatkichlardan foydalanildi. Infratuzilma holatini baholashda esa transport, logistika, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasiga oid ko‘rsatkichlar hisobga olindi. Keyingi bosqichda korrelyatsion tahlil orqali klasterlash darajasi bilan infratuzilma ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘nalishi va zichligi aniqlandi. Shundan so‘ng ko‘p omilli regression tahlil yordamida infratuzilmaning alohida tarkibiy qismlarining klasterlash jarayoniga ta’siri miqdoriy jihatdan baholandi. Model natijalarining statistik ishonchliligi determinatsiya koeffitsienti, t-mezon, F-mezon va p-value kabi mezonlar orqali tekshirildi. Tadqiqotda hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash, klasterlash va infratuzilma rivojlanishining o‘zaro mutanosibligini baholash hamda aniqlangan statistik bog‘liqliklarni iqtisodiy jihatdan talqin qilishga alohida e’tibor qaratildi. Shu asosda infratuzilmaning qaysi yo‘nalishlari klasterlarning rivojlanishi bilan kuchliroq bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlashga yo‘naltirildi. Umuman, tanlangan metodologik yondashuv statistik tahlil, korrelyatsion tahlil va ekonometrik modellashtirishning izchil uyg‘unligiga asoslanib, klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy va miqdoriy jihatdan asoslash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida klasterlash jarayonlari va infratuzilma rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash hududning ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy ixtisoslashuvi va transport-kommunikatsiya imkoniyatlarini kompleks o‘rganishni talab qiladi. Klasterlash korxonalar, xomashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlash subyektlari, logistika xizmatlari va ilmiy-ta’lim tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytiradi. Infratuzilmaning rivojlanganligi esa ushbu subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tezlashtirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlarni bozorlarga yetkazib berish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda Qashqadaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) real hisobda 6,8 foizga o‘sgan. Shu davrda sanoat ishlab chiqarishi 7,2 foiz, qurilish ishlari 10,8 foiz, bozor xizmatlari 13,6 foiz hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 4,3 foiz o‘sish sur’atini qayd etgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatda 3 716 949 nafar doimiy aholi istiqomat qilgan va 30 424 ta korxona hamda tashkilot faoliyat yuritgan. Ushbu ko‘rsatkichlar hududda iqtisodiy faoliyat va infratuzilma xizmatlariga bo‘lgan talabning sezilarli ekanini ko‘rsatadi.

2024-yil yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan statistik ma’lumotlar ham hududiy iqtisodiyotning tarmoq tarkibida muhim o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Qashqadaryo viloyatida YAHM hajmi 80 658,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan real hisobda 6,5 foizga o‘sgan. YAHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 32,7 foiz, sanoatning ulushi 17,7 foiz, qurilishning ulushi 8,0 foiz va xizmatlar sohasining ulushi 41,6 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar viloyatda qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmatlar o‘rtasidagi iqtisodiy

aloqalarni rivojlantirish hamda ular uchun zarur infratuzilmani takomillashtirish muhimligini anglatadi.

Klasterlash va infratuzilma rivojlanishining statistik tahlili. Qashqadaryo viloyatida klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmi, qurilish ishlari, xizmatlar rivojlanishi va korxonalar soni o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar sifatida qaralishi mumkin. Quyidagi jadvalda rasmiy statistik manbalarda qayd etilgan asosiy natijalar keltirilgan.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2024-yil	2025-yil
YAHMning real o‘sish sur’ati, %	6,5	6,8
Sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’ati, %	8,0	7,2
Qurilish ishlari o‘sish sur’ati, %	12,1	10,8
Bozor xizmatlari o‘sish sur’ati, %	6,8	13,6
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi o‘sish sur’ati, %	4,2	4,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2024-yil YAHM bo‘yicha press-relizi va 2025-yil hududiy statistika ma’lumotlari. 2024-yil ko‘rsatkichlari real o‘sish sur’atlarini ifodalaydi.

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti o‘sish sur’ati 2024-yilga nisbatan 0,3 foiz bandga oshgan. Sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’ati 0,8 foiz bandga pasaygan bo‘lsa, qurilish ishlari bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 1,3 foiz bandga kamaygan. Aksincha, bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati 6,8 foizdan 13,6 foizga ko‘tarilib, 6,8 foiz bandga oshgan. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining o‘sish sur’ati esa 4,2 foizdan 4,3 foizga yetgan. Mazkur o‘zgarishlar klasterlash siyosatida faqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga emas, balki transport, saqlash, logistika, savdo va boshqa xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishga ham e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu statistik o‘zgarishlarning o‘zi klasterlash infratuzilma rivojlanishiga bevosita sabab bo‘lganini isbotlamaydi. Buning uchun klasterlar faoliyati va infratuzilma ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ekonometrik baholanishi lozim.

Hududiy infratuzilma loyihalarining klasterlash jarayonlariga ta’siri. Qashqadaryo viloyatida klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda nafaqat ishlab chiqarish infratuzilmasi, balki ijtimoiy infratuzilmani ham hisobga olish muhim. BMT Taraqqiyot dasturining 2025-yil 5-avgustda e’lon qilingan ma’lumotiga ko‘ra, viloyatning 45 ta qishloq mahallasida 2025–2028-yillar davomida 26 ta maktab, 11 ta bolalar bog‘chasi, 4 ta qishloq poliklinikasi va boshqa ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish yoki rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalar hududlarning uzoq muddatli rivojlanishiga bir necha yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Birinchidan, ta’lim va tibbiyot xizmatlarining yaxshilanishi mehnat resurslarining sifati va hududda doimiy yashash uchun sharoitlarni mustahkamlaydi. Ikkinchidan, infratuzilmaning rivojlanishi tadbirkorlik subyektlari uchun hududning jozibadorligini oshirishi mumkin. Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilmaning ishlab chiqarish va transport

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

infratuzilmasi bilan uyg‘un rivojlanishi klasterlar faoliyati uchun zarur mehnat resurslari va xizmatlar ta’minotini yaxshilashga yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu obyektlarning barchasi ishlab chiqarish infratuzilmasi hisoblanmaydi. Shuning uchun ekonometrik tahlilda yo‘llar, elektr energiyasi, suv ta’minoti, internet, omborxona va logistika obyektlari kabi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma ko‘rsatkichlarini maktab, bog‘cha va poliklinikalar kabi ijtimoiy infratuzilma ko‘rsatkichlaridan alohida o‘rganish maqsadga muvofiq. O‘tkazilgan statistik tahlil Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o‘sishning tarmoqlar bo‘yicha bir xil sur’atda kechmayotganini ko‘rsatadi. 2025-yilda bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati sanoat va qurilish ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqori bo‘lgan. Bu holat ishlab chiqarish klasterlarini logistika, saqlash, transport va savdo xizmatlari bilan integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadigan muhim iqtisodiy tendensiyadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari klasterlash jarayoni va hududiy infratuzilma rivojlanishi o‘rtasida uzviy iqtisodiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Klasterlarning hududiy konsentratsiyasi ishlab chiqarish, bandlik va investitsiya faolligining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri bo‘lsa, rivojlangan infratuzilma klaster subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va ularning bozorlar bilan integratsiyasini yaxshilash uchun zarur shart hisoblanadi. Ushbu xulosa Porterning klaster nazariyasi hamda Delgado, Porter va Sternning hududiy klasterlarning iqtisodiy natijalarga ta’sirini empirik baholagan tadqiqotlari bilan hamohangdir. O‘zbekiston hududlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar klasterlash darajasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2025-yil yakunida mamlakat bo‘yicha klasterlarda 56 555 ta ish o‘rni qayd etilgan bo‘lsa, Andijon viloyatida 9 696 ta, Buxoro viloyatida 5 394 ta, Qashqadaryo viloyatida 3 609 ta ish o‘rni mavjud bo‘lgan. Mazkur tafovutlar klasterlarning rivojlanish darajasi hududlarning ishlab chiqarish va infratuzilmaviy imkoniyatlari bilan birgalikda baholanishi lozimligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning nazariy va empirik natijalari infratuzilmani klaster siyosatidan alohida ko‘rib chiqish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ketels va Protsiv tadqiqotlarida ham klasterlarning hududiy iqtisodiy natijalar bilan bog‘liqligi biznes muhiti va boshqa hududiy omillarni hisobga olgan holda namoyon bo‘lishi asoslangan. 2025-yilda e’lon qilingan keng qamrovli meta-tahlilda esa transport, energetika va raqamli infratuzilmaning rivojlanish natijalariga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’siri qayd etilgan, biroq ta’sir kuchi mamlakat va infratuzilma turiga qarab farqlanishi ko‘rsatilgan. Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududiy klasterlarni rivojlantirish dasturlarida infratuzilma omilini asosiy mezonlardan biri sifatida belgilash va yangi klasterlarni tashkil etishda transport, energetika, logistika hamda raqamli infratuzilmaning mavjud holatini kompleks baholash maqsadga muvofiq.

2. Transport-logistika infratuzilmasini klasterlar joylashuvi bilan muvofiqlashtirish orqali xomashyo va tayyor mahsulotlarning hududlararo harakatini tezlashtirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga sharoit yaratish zarur.

3. Hududlar o‘rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan investitsiya siyosatini kuchaytirish lozim. Ayniqsa, klasterlash salohiyati mavjud bo‘lgan, biroq transport, energetika yoki raqamli infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan hududlarga infratuzilmaviy loyihalarni yo‘naltirish muhim.

4. Klasterlarning samaradorligini baholashning ekonometrik monitoring tizimini joriy etish taklif etiladi. Bunda klasterlar soni bilan cheklanib qolmasdan, bandlik, ishlab chiqarish, investitsiya, eksport va infratuzilma ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muntazam tahlil qilinishi kerak.

5. Transport, energetika va raqamli infratuzilmani o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarur. Xalqaro tadqiqotlar infratuzilmaning alohida turlari bo‘yicha ta’sir bir xil emasligini ko‘rsatgani sababli hududning o‘ziga xos iqtisodiy ixtisoslashuviga mos infratuzilma modeli shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Umuman, tadqiqot natijalari klasterlashni hududiy iqtisodiy rivojlanishning mustaqil elementi sifatida emas, balki ishlab chiqarish, infratuzilma, investitsiya, bandlik va logistika omillari o‘zaro bog‘langan yagona iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda hududlar bo‘yicha panel ma’lumotlardan foydalanish orqali ushbu bog‘liqlikni yanada chuqurroq ekonometrik baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. – Vol. 76, No. 6. – P. 77–90.

2. Ketels C.H.M., Memedovic O. From clusters to cluster-based economic development // International Journal of Technological Learning, Innovation and Development. – 2008. – Vol. 1, No. 3. – P. 375–392.

3. Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // Research Policy. – 2014. – Vol. 43, No. 10. – P. 1785–1799. – DOI: 10.1016/j.respol.2014.05.007.

4. Ketels C., Protsiv S. Cluster Presence and Economic Performance: A New Look Based on European Data // Regional Studies. – 2021. – Vol. 55, No. 2. – P. 208–220. – DOI: 10.1080/00343404.2020.1792435.

5. Foster V., Gorgulu N., Jain D., Straub S., Vagliasindi M. The Impact of Infrastructure on Development Outcomes: A Meta-Analysis // The World Bank Research Observer. – 2026. – Vol. 41, No. 2. – P. 242–268. – DOI: 10.1093/wbro/lkaf003.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Klasterlarda ish o‘rinlari soni, hududlar kesimida. SIAT ma’lumotlar bazasi. – 2026.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**